



UO'K: 595.782

## O'YIQ QANOTLI KUYALAR (LEPIDOPTERA: GELECHIIDAE) TURLARI XILMA-XILLIGI VA TAKSONOMIK HOLATI

**Axmedova Zuxra Yuldashevna** 

bilogiya fanlari nomzodi, katta ilmiy xodim

e-mail: [z\\_akhmedova@mail.ru](mailto:z_akhmedova@mail.ru)**O'razova Firusa Urazbayevna** 

stajyor tadqiqotchi

e-mail: [fiiruuzaa@gmail.com](mailto:fiiruuzaa@gmail.com)

O'zR FA Zoologiya Instituti

**Annotatsiya.** Maqolada O'zbekistonda tarqalgan Gelechiidae oilasiga mansub kuyalar xilma-xilligi va ularning ahamiyati haqida ma'lumot berilgan. Tadqiqot adabiyotlar sharhiga asoslangan bo'lib, mavjud ma'lumotlarga ko'ra, O'zbekistonda ushbu oilaga mansub 14 tur qayd etilgan.

**Kalit so'zlar:** Gelechiidae, Lepidoptera, tur tarkibi, tarqalishi

**Abstract.** The article provides information on the diversity of moths belonging to the family Gelechiidae distributed in Uzbekistan and their significance. The study is based on a review of the literature, and according to the available data, 14 species of this family have been recorded in Uzbekistan.

**Keywords:** Gelechiidae, Lepidoptera, species composition, distribution

**Аннотация.** В статье представлена информация о разнообразии молей семейства Gelechiidae, распространённых в Узбекистане, и их значении. Исследование основано на обзоре литературы, и согласно имеющимся данным, в Узбекистане зарегистрировано 14 видов данного семейства.

**Ключевые слова:** Gelechiidae, Lepidoptera, видовой состав, распространение.

### KIRISH

Yer yuzida o'yiqli qanotli kuyalarga mansub hasharotlarning 500 avlod, 4700 dan ortiq turi tarqalganligi aniqlangan. Ular orasida pomidor kuyasi (*Tuta absoluta* (Meyrick, 1917)), kartoshka kuyasi (*Phthorimaea operculella* (Zeller, 1873)), don kuyasi (*Sitotroga cerealella* (Olivier, 1789)), pushti go'za kuyasi (*Pectinophora gossypiella* (Saunders, 1844)), Lavlagi kuyasi (*Scrobipalpa ocellatella* (Boyd, 1858)) zararkunanda sifatida qayd etilgan (Gelechiidae.org).





## AGRO KIMYO HIMOYA VA O'SIMLIK KARANTINI

MDH davlatlarida o'yiqli qanotli kuyalarni o'rganish bo'yicha bir qator olimlar tomonidan ilmiy tadqiqotlar olib borilgan. Ular qatorida O.Bidzilya 1997-yilda Ukrainaning cho'l hududlarida Gelechiidae oilasi kuyalarini o'rganish bo'yicha nomzodlik dissertatsiyasini yoqlagan. Bidzilya 2010-yildan keyin O'rta Osiyo mamlakatlari cho'l hududlarida o'yiqli qanotli kuyalarni o'rganish bo'yicha qator tadqiqot ishlarini olib borgan, xususan Turkmaniston va O'zbekiston hududlarida kuyalarning tur tarkibi va tarqalishini o'rgangan.

Qirg'izistonda Gelechiidae oilasi vakillarini o'rganish bo'yicha tadqiqotlarni Esenali Uulu (2017) tomonidan olib borilgan, xususan pomidor kuyasini Qirg'izistonda ilk bor 2017-yilda aniqlanganligi haqida ma'lumotlar keltirgan. Tojikiston Respublikasida bu oila vakillarini o'rganish bo'yicha N.Saidov (2018) tadqiqotlar olib borgan bo'lib, ularning tur tarkibi va zararli turlariga qarshi kurash usullarini o'rgangan. Tojikistonda pomidor kuyasini ilk bor 2018 yilda aniqlanganligi haqida ma'lumot keltirilgan.

O'zbekiston sharoitida keying 10 yil davomida Lepidoptera turkumi vakillari, jumladan kuyalarni qishloq xo'jalik ekinlari zararkunandasi sifatida o'rganishga bo'lgan e'tibor kuchayib bormoqda. Xususan K.Mamatov (2016) issiqxona sharoitida pomidorni zararkunandalardan himoya qilish usullari bo'yicha olib borgan tadqiqotlarida pomidor kuyasini, D.Obidjonov (2017) kartoshka zararkunandalari bioekologik xususiyatlarining nazariy asoslari va ularga qarshi kurash tizimini ishlab chiqish bo'yicha o'tkazgan tadqiqotlarida kartoshka kuyasini, T.Jabborhonov (2023) agrosenozlarda tarqalgan pomidor zararkunandalarining bioekologiyasini o'rganish jarayonida pomidor kuyasini zararkunanda tur sifatida o'rgangan, D.Dusmatova (2024) kartoshka kuyasiga qarshi mahalliy entomopatogen nematodalarni qo'llashning ilmiy asoslarini o'rganish bo'yicha tajribalar olib borgan. Farg'ona vodiysi agroekotizimida tarqalgan tangachaqanotlilar (lepidoptera) turkumini o'rganish bo'yicha M.Shermatov (2024) tomonidan olib borilgan tadqiqotlar davomida Gelechiidae oilasining 6 ta turi (*Platyedra subcinerea* Haworth, 1828, *Phthorimae opercullela* Zeller, 1873, *Tuta absoluta* Meyrick, 1917, *Recurvaria nanella* Denis & Schiffermuller, 1775, *Schneidereria pistaciella* Weber, 1957, *Anarsia lineatella* Zeller, 1839) tarqalganligi aniqlangan.

Respublikamiz hududida pomidor va kartoshka kuyasi invaziv tur bo'lib, ularning tarqalish areali keyingi yillarda bir nechta barobarga ortib ketdi. Pomidor kuyasi (*Tuta absoluta* (Meyrick 1917)) ilk bor Peru davlatida aniqlangan bo'lib, O'zbekistonda tarqalishi 2015 yilda aniqlangan. Bu hasharot ilk bor Buhoro, Navoiy va Toshkent viloyatlarida topilib, hozirgi kunda Respublikamizning barcha viloyatlarida pomidorning asosiy zararkunandasiga aylanib ulgurdi (Xo'jayev 2019, Mamatov 2020). Pomidor kuyasining qurtlari asosiy zarar keltiruvchi bosqichi bo'lib, ular ituzumdoshlarga mansub ekinlarning barg eti (parenhima) bilan oziqlanib zarar keltiradi. Oziqlangan barg qismlarida g'ovak hosil qiladi. Bargning qoplovchi (epidermis) to'qimasi ostida himoyalangan holda rivojlanishi lichinkalarga qarshi kurashni murakkablashtiradi (Xo'jayev, 2019).



## AGRO KIMYO HIMOYA VA O'SIMLIKLER KARANTINI

Kartoshka kuyasi (*Phthorimaea operculella* (Zeller, 1873)) ilk bor 2009 yil Xorazm viloyatida aniqlangan va Respublikamizning barcha hududlarida tarqalib kartoshkaning asosiy zararkunandasiga aylangan. Kartoshka kuyasi lichinkalar o'simlikning barcha organlarini zararlaydi. Bundan tashqari kartoshkalarni omdorda saqlash davrlarida ham zararlashda davom etadi. Yashirin hayot tarziga ega bo'lganligi uchun bu hasharotga ham qarshi kurash tadbirlarida yuqori samaradorlikga erishish qiyin hisoblanadi (Obidjanov, 2011).

### MATERIALLAR VA USLUBLAR

O'ziq qanotli kuyalar turlarni aniqlash Bidzilya va hammualliflarining ilmiy ishlarida qo'llanilgan klassik morfologik va taqqoslovchi taksonomik yondashuvlarga asoslangan holda amalga oshirildi. Tadqiqotda O'zR FA Zoologiya instituti noyob obyekt zoologiya kolleksiyasida va O'simliklar karantini va himoyasi ilmiy-tadqiqot institutida mavjud o'ziq qanotli kuyalar kolleksiyalarini tahlil qilindi.

### NATIJALAR VA MUNOZARA

G'ozapoya kuyasi (*Plateidra subcinerea* Hw.) respublikamiz hududlarida ilk bor 1941 yilda aniqlangan bo'lib, rivojlanishi zaif bo'lgan g'o'zaga ko'proq zarar keltirishi aniqlangan. Rivojlanishining birinchi avlodini dala atrofidagi begona o'tlarida o'tkazadi. Ikkinchi avlodi g'o'za dalalariga tarqaladi. Bu kuya asosan g'ozaning shonasiga zarar keltiradi va shoxlab ketishiga sabab bo'ladi (Xo'jayev, 2019).

1-jadval

#### O'zbekistonda tarqalgan Gelechiidae oilasi kuyalari ro'yhati

| №   | Kuyaning lotincha nomi                           | Ekin turi                    | Muallif                         |
|-----|--------------------------------------------------|------------------------------|---------------------------------|
| 1.  | <i>Tuta absoluta</i> (Meyrick, 1917)             | Pomidor va ituzumdoshlilar   | Xo'jayev (2019), Mamatov (2020) |
| 2.  | <i>Phthorimaea operculella</i> (Zel., 1873)      | Kartoshka va ituzumdoshlilar | Obidjanov (2011)                |
| 3.  | <i>Plateidra subcinerea</i> (Haworth, 1828)      | G'o'za                       | Xo'jayev (2019)                 |
| 4.  | <i>Sitotroga cerealella</i> (Olivier, 1789)      | G'alla                       | Nuralieva (2023)                |
| 5.  | <i>Recurvaria nanella</i> (Denis & Schif., 1775) | Mevali daraxtlar             | Shermatov (2024)                |
| 6.  | <i>Schneidereria pistaciella</i> (Weber, 1957)   | Pista                        | Shermatov (2024)                |
| 7.  | <i>Anarsia lineatella</i> (Zeller, 1839)         | Bodom                        | Shermatov (2024)                |
| 8.  | <i>Gladivalva igorella</i> (Falk. & Bidz., 2003) | Cho'l o'simliklari           | Bidzilya (2005)                 |
| 9.  | <i>Athrips tigrina</i> (Christoph, 1877)         | Cho'l o'simliklari           | Bidzilya (2005)                 |
| 10. | <i>Athrips mongolorum</i> (Piskunov, 1980)       | Cho'l o'simliklari           | Bidzilya (2005)                 |
| 11. | <i>Athrips gussakovskii</i> (Gerasimov, 1930)    | Cho'l o'simliklari           | Bidzilya (2005)                 |
| 12. | <i>Athrips autumnella</i> (Falk. & Bidz., 2003)  | Cho'l o'simliklari           | Bidzilya (2005)                 |
| 13. | <i>Athrips falkovitshi</i> (Piskunov, 1990)      | Cho'l o'simliklari           | Bidzilya (2005)                 |
| 14. | <i>Athrips eugenii</i> (Bidzilya, 2005)          | Cho'l o'simliklari           | Bidzilya (2005)                 |

Don kuyasini (*Sitotroga cerealella* Oliv.) biolaboratoriyalarda ko'paytirish usullari ishlab chiqilgan va Respublikamizda trihogramma (*Trichogramma* sp.)





## AGRO KIMYO HIMOYA VA O'SIMLIK KARANTINI

entomofagini biolaboratoriyalarda ko'paytirish obyekti sifatida foydalaniladi. Shuning uchun bu hasharotning morfometrik ko'rsatgichlari, hayot sikli va laboratoriya sharoitida rivojlanishi keng o'rganilgan bo'lsada tabiatda tarqalishi va ekologiyasini o'rganish bo'yicha tadqiqotlar yetarlicha olib borilmagan (Nuralieva 2023).

*Recurvaria nanella* (Denis & Schiffermüller, 1775) ko'p adabiyotlarda barg parvonasi nomi bilan keltirilgan. Bu kuya ham o'yiqlik qanotli kuyalar (Gelechiidae) oilasiga mansub bo'lib, asosan mevali bog'larda, yani olma, o'rik, shaftoli, olxo'ri, nok, bodom bog'larida tarqalganligi keltirilgan (Shermatov, 2024).

*Schneidereria pistaciella* Weber. (1957) Kuyasi ilk bor Shermatov (2024) tadqiqotlarida Farg'ona vodiysida tarqalganligi keltirilgan. Adabiyot ma'lumotlariga ko'ra bu kuya handon pista daraxtzorlarida keng tarqaladi, asosan, Ukraina, Misr, Kipr, Suriya va Iroq davlatlari hududlarida tarqalgan.

*Anarsia lineatella* Zeller, 1839. Bodom meva kuyasi Farg'ona vodiysida tarqalganligi 2024-yilda aniqlangan bo'lib, asosan bodomzorlarda zarar keltirishi o'rganilgan. Ozarbayjonda bodom bog'larining asosiy zararkunandasi sifatida qayd etilgan. Yiliga 2-3 avlod berib rivojlanadi. Bodom mevasinin urug'i bilan oziqlanib, hosilning 30-40 % gacha qismini nobud qilishi aniqlangan (Shermatov, 2024).

Qizilqum cho'lining Buhoro va Navoiy hududlarida kuyalarning 2 ta avlodga mansub 7 ta turi tarqalganligini aniqlangan. Bular: *Gladiovalva igorella* Falkovitsh & Bidzilya, *Athrips tigrina* (Christoph, 1877), *Athrips mongolorum* Piskunov, 1980., *Athrips gussakovskii* (Gerasimov, 1930), *Athrips autumnella* Falkovitsh & Bidzilya, 2003., *Athrips falkovitshi* Piskunov, 1990., *Athrips eugenii* sp. n. ekanligi Bidzilya (2005) tadqiqotlarida keltirilgan.

### XULOSALAR

Adabiyotlar ma'lumotlarini tahlil qilish orqali O'zbekistonda o'yiqlik qanotli kuyalar (Gelechiidae) oilasining 4 kenja oila, 6 triba, 9 avlodga mansub 14 tur tarqalgani ma'lum bo'ldi shulardan 7 turi agrosenozlarda tarqalib, qishloq xo'jalik ekinlariga zarar keltirishi ma'lum bo'ldi.

Mazkur tadqiqot ishi O'zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi Zoologiya institutining 2025-2029 yillarga mo'ljallangan «1.2. Buxoro va Navoiy viloyatlari hayvonot dunyosining raqamli axborot tizimini yaratish» Davlat byudjetidan moliyalashtiriladigan ilmiy-tadqiqot ishlari dasturi doirasida bajarilgan.

### ADABIYOTLAR

1. Xo'jayev Sh.T. Umumiy va qishloq xo'jaligi entomologiyasi hamda uyg'unlashgan himoya qilish tizimining asoslari. Toshkent 2019. 236 b.

2. Shermatov M.R. "Farg'ona vodiysi agroekotizimlari tangachaqanotli hasharotlari (Insecta, Lepidoptera)" zoologiya 03.00.06 ixtisosligi bo'yicha biologiya fanlari doktori (DSc) dissertatsiya avtoreferati. Toshkent 2024. 60 b.

3. Bidzilya O. A review of the genus *Athrips* (Lepidoptera, Gelechiidae) in



---

## AGRO KIMYO HIMOYA VA O'SIMLIKLER KARANTINI

---

the Palaearctic region. Mitt. Mus. Nat.kd. Berl., Dtsch. entomol. Z. 52 (2005) 1, 3–72 / DOI 10.1002/mmnd.200310001

4. Obidjanov D. A. “Kartoshka zararkunandalari bioekologik xususiyatlarining nazariy asoslari va ularga qarshi kurash tizimini ishlab chiqish” o'simliklarni himoya qilish 06.01.09 ixtisosligi bo'yicha qishloq xo'jaligi fanlari doktori (DSc) dissertatsiya avtoreferati. Toshkent 2023. 60 b.

5. Mamatov K.Sh. “Issiqxonalarda pomidorni zararkunandalardan himoya qilishning ilmiy-asoslangan usul va vositalar majmualarini takomillashtirish” o'simliklarni himoya qilish 06.01.09 ixtisosligi bo'yicha qishloq xo'jaligi fanlari doktori (DSc) dissertatsiya avtoreferati. Toshkent 2020. 60 b.

6. Nuraliyeva D.S., Muhammadiyeva D.Sh. Ombor zararkunandalarining tur tarkibi va bioekologiyasi tahlili. Agro kimyo himoya va o'simliklar karantini. Maxsus son [3], 2023. 156-157 b.